

Yurt mehri

Rauf Tolib



Rauf Tolib
1946–2009

Rauf Tolib – o'z ijodini bolalarga bag'ishlagan shoir va yozuvchi. U 1946-yilda Toshkentda tug'ilgan. "Gulxan" va "G'uncha" jurnallaridagi faoliyati davomida muallif o'sib kelayotgan avlod muammolarini yoritib bergan ko'plab asarlar yozgan. Uning hikoyalari, ertaklari va she'rlari jajji kitobxonlar tomonidan samimiy kutib olingan.



Dengiz osha uchar qush,
Ufqlarni quchar qush.
Shoshib, oshiqib hamon,
Uchadi yurti tomon.
Bunday olis, uzoqqa
Qushcha dengiz oshmoqqa,
Uni majbur etgan kim?
Uchadi bilmay qo'nim.
Kun bo'yi charchab quyosh,
Yotog'iga qo'ydi bosh.
Atrofga cho'kdi oqshom,
Qushcha olmasmi orom?
Axir charchab qolmasmi?
Qanotlari tolmasmi?

Mizg'ib uxlab olmasmi?
 Yoki joni olmosmi?
 Olarkin qayerdan kuch?
 Har on xavfga kelar duch.
 Bo'lsa-da, ulkan, cheksiz,
 Qushga pisandmas dengiz.
 Ona yer mehri zo'r kuch,
 Undan uzilolmas hech.
 Sabotdir sabotiga,
 Madordir qanotiga.
 Qalbiga sevinch bergan,
 Olam-olam kuch bergan.
 Sog'intirgan el mehri,
 Yurtin joziba, sehri.
 Uqlarning betida,
 Dengizlarning chetida,
 Ko'ziga yonib shu choq,
 Ko'rinar ona tuproq.



1. Qush nimaning ustidan uchib o'tmoqda?
2. U qayerga qarab intilmoqda?
3. "Kun bo'yi charchab quyosh, yotog'iga qo'ydi bosh" satrlarini qanday tushunasiz?
4. Nega qushchani joni olmosga tenglashtirilgan?
5. Qush barcha to'siqlarga qaramay, nima uchun Vataniga shoshmoqda?
6. U kuchni qayerdan olmoqda?



She'rni yod oling.

